



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Usarova M.N.

Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktaranti

Tayanch so‘zlar: pedagogik texnologiya, o‘qitish jarayoni, texnika, mahorat, samarali usullar, usul, maqsad, vazifa.

Ключевые слова: педагогическая технология, процесс обучения, прием, умение, эффективные методы, метод, цель, задача.

Key words: pedagogical technology, teaching process, technique, skill, effective methods, method, goal, task.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishda o‘quvchi shaxsi asosiy o‘rinda turishi, ya‘ni o‘quvchi ta‘lim markazida bo‘lishi kerak. Bizda esa hali-hanuz bosh rolda o‘qituvchi bo‘lishi holatlari kuzatilmoqda. U axborot berish, darsni tezroq o‘tish, o‘quvchilarni tezroq o‘qitish bilan ovora, ammo o‘quvchilarning qiziqishlari, bilim darajasi, yangiliklarni qabul qilishi, tushunishi turlicha. Bularni hisobga olish, qanday bo‘lsa-da har bir o‘quvchini darsda faol ishtirok etishga jalb etish lozim. Dars jarayonida o‘quvchi harakatlanuvchi asosiy kuchga ega bo‘lishi, ya‘ni u o‘qish, o‘rganish, o‘zlashtirish va mutolaa qilishda faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. O‘qituvchi esa o‘quvchilarga o‘qitishdan o‘rganishga, bilim berishdan bilimlarni mustaqil egallashga ko‘maklashishi zarur. Shu bilan birga, ularni faol ishtirokchi bo‘lish uchun muhit yaratish va mas‘uliyatni sezishga yo‘llashi kerak.

Ma‘lumki, har bir dars uchun ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ya‘ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan uch yoqlama maqsad qo‘yiladi. Darsni tashkil etish shakli dars ishtirokchilarining o‘zaro aloqalariga bog‘liq bo‘lib, yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish o‘quv materialini xususiyatlari, ta‘lim metodlari, o‘quv imkoniyatlari, o‘qituvchi mahorati va texnikasiga bog‘liq. Bularning barchasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchi boshqaruvchi sifatida o‘quvchilar bilan birgalikda harakat qiladi. Xuddi mana shu jarayon faol amalga oshirilsagina, o‘quv jarayonining samaradorligi ta‘minlanadi.



O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirish, zarur bilim, ko'nikma va malakalar, kuzatuvchanlik, tafakkur va bog'lanishli nutq, xotira va ijodiy tasavvurlarni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik tamoyil – ta'limdagi faollikdir. Bunday tizimda o'quvchi ham, o'qituvchi ham ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda amalga oshiradi. Ular ham ijodkorlikda har bir o'quvchining bilim va qobiliyati, individual intilish va ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o'qituvchi faqat «baholovchi» emas, balki yangi bilim yetkazuvchi manbaga aylanadi. Darsda o'quvchilar faoliyatiga nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar ham rahbarlik qiladi. Avval a'lochi o'quvchilar, so'ngra boshqa o'quvchilar ham o'qituvchi topshirig'iga binoan nima ish qilganlarini ko'rsatib namoyish qilishadi va natijada bu holatdan qolgan o'quvchilar o'zlariga xulosa chiqarib, ergashadilar. Bunday «izohli boshqaruv» o'quvchi maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlanishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Ta'lim tizimida dars samaradorligini oshirish uchun biz bugun, avvalo, o'quvchiga boshlang'ich sinfning dastlabki pallasidan boshlab «sen buni bilishing shart», degan majburlovchi da'vatdan olim A.Mallaboev aytganidek, har bir bolaga individual yondashgan holda «menga bu zarur, men buni bilishga, uddalashga, uni hayotga tatbiq etishga qodirman», degan bir ichki tuyg'u, xohish- istakni uyg'otishga harakat qilishimiz lozim. Ushbu holatdan ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi o'qitishning mavzu mazmuniga mos ilg'or, samarali usullarini izlab topishi, ma'lum bo'lgan samarali usullarni unumli, ijodiy ravishda mashg'ulotlar jarayonida qo'llashi zarur.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan avval tashkil qilinadigan ta'lim turlarini aniq ravishda aniqlab, to'g'ri tashkil qilishda ixtiyoriy ravishda shakllanayotgan bilim, ko'nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli, qo'llanilayotgan metodlar va metodik usullarning xususiyatiga bog'liq. Masalan, o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'quv materiallariga tanqidiy yondashish ko'nikmasini shakllantirish hamda mahsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish uchun darsning noan'anaviy shakllari (uyg'unlashtirilgan darslar) bilan birgalikda konferensiya darsi, ishchan o'yin darslari, integrallashtirilgan (ikki komponentli) darslardan foydalanish lozim. Mazkur vaziyatda ham ta'lim metodlari ta'lim maqsadi bilan mutanosib bo'lishi kerak.

Yetarli darajadagi rag'bat bilan ham o'quvchilar faoliyatini tashkil etishda ko'zlangan natijalarga erishish kafolatlanmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining didaktik nuqtai- nazardan takomillashuvi faqatgina ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo'llarini to'g'ri tanlash orqali ta'minlanadi.

Pedagogik texnologiyalarni boshqarish o'zida ikki yo'nalishni mujassamlashtiradi:

1. Faoliyatni boshqarish.
2. O'quvchilar jamoasini boshqarish.

Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalardir. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalar maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Pedagogik jarayonning mohiyati o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), ta'lim mazmunini tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metodi va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o'quvchilarning ko'nikma va malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanishi o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etishga alohida e'tibor berilishi zarur. Qachonki maqsad va vazifalar aniq belgilab olinsa, ularni amalga oshirish yo'llari to'g'ri tanlansa, Davlat ta'lim standarti talablarini o'zlashtirish kafolatlanadi.

Pedagogik vazifani belgilashda quyidagilarni inobatga olish lozim:

- ta'lim maqsadlari asosida o'quv predmeti mazmunini aniqlash;
- o'quv predmetining axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv mashg'ulotlari tizimi ko'rinishida ifodalash;
- o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajalarini avvaldan belgilash;
- o'quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash;
- moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash.

Natijalar. Boshlang'ich ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar asosiy yo'llardan hisoblanadi, chunki:

- o'quvchining talabi, moyilligi, istak-xohishi, uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o'quvchining mehnat mas'uliyati, javobgarligi, burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash, erkin fikrlash, ijodiy yondashuv malakalari shakllanadi;
- har bir yangilikni o'zi tatbiq etish, o'zi kashf etishga intiladi;
- pedagogik texnologiyalarda muayyan muammoni ishlab chiqish ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi;



- umumta’lim ta’lim dasturi qatnashchisi potensial imkoniyatlarini o‘zaro hamkorlik asosida, barchaning sa’y-harakatlarini integratsiyalash orqali rivojlantirishga tayaniladi;
- boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalardan barcha fanlar kesimida ta’lim berish jarayonida foydalanish eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonini yuqorida ta’kidlangan pedagogik xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etish dars samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi, kutilgan pirovard natijaning qo‘lga kiritilishini kafolatlaydi. Bunda pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, u orqali ta’lim jarayonida rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud bo‘lganligi sababli o‘quvchilarda dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit shakllantirish bilan bog‘liq jarayondir. Umumta’lim tizimida pedagogik texnologiyalardan amaliy foydalanishning samarali bo‘lishi uchun uning metodologiyasini ishlab chiqish va aniq texnologiyalarini yaratish zarur. Umuman, pedagogik texnologiyadan dars jarayonida oqilona foydalanilsa, o‘quvchilarning bilimlarini yuqori darajada rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. Interfaol ta’lim sifat kafolati. (Bolaga do‘stona munosabatdagi ta’lim). – T.: 2018 y. –11-b.
2. Mallaboev A. O‘quvchilar bilan individual munosabatda bo‘lishning psixologik asoslari. // Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. – Andijon, 2016. -27-b.
3. Ochilov F. Pedagogik texnologiyalar asosida tabiatshunoslik darslari samara- dorligini oshirish. // «Tafakkur sarchashmalari» (Magistrantlarning ilmiy-metodik maqolalari to‘plami). – T.: 2013. -219-b.
4. B.Ziyomuxammadov. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2016.
5. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘raev. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2015.
6. Berdiyev B. R. Talabalar mustaqil ishining o‘ziga xos xususiyatlari ta’lim sifatini ta’minlash omili // “XALQ TA’LIMI” ilmiy-metodik jurnali. 2021. №5 67-70 b (13.00.00; №17)

РЕЗИОМЕ

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishning muammolari va ularni bartaraf etishdagi yechimlarning pedagogik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish va ulardan oqilona foydalanish samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

РЕЗИОМЕ

В статье раскрываются проблемы повышения эффективности образовательного процесса начальной школы и педагогические особенности решения их преодоления. Также обсуждались вопросы эффективного внедрения передовых педагогических технологий и их рационального использования в начальных классах.

SUMMARY

The article reveals the problems of increasing the effectiveness of the primary school educational process and the pedagogical features of solutions to overcome them. Also, the effective introduction of advanced pedagogical technologies and their rational use in primary classes were discussed.